

51. Uch xonali sonlarni qo'shish

Yondosh mavzu:
oshpazlar, novvoylar,
qandolatchilar

O'tkazish bilan qo'shish
yuzliklar, o'nliklar, birliklar



Cho'pning o'rnini shunday
almashtiringki, natijada tenglik
to'g'ri bo'lsin.

$$6 + 2 = 18$$



1. Hisoblang:

$$3 \text{ birl.} + 7 \text{ birl.}$$

$$1 \text{ birl.} + 9 \text{ birl.}$$

$$2 \text{ o'nl.} + 8 \text{ o'nl.}$$




$$4 \text{ o'nl.} + 6 \text{ o'nl.}$$

$$7 \text{ o'nl.} + 8 \text{ o'nl.}$$

$$6 \text{ o'nl.} + 5 \text{ o'nl.}$$



2. Novvoy birinchi pechdan 150 ta non, ikkinchi pechdan 170 ta non oldi. U nonlarni yog'och poddonlarga rasmda ko'rsatilganidek joyladi. Barcha nonlarni sanash uchun ularni yog'och poddonlarga qanday joylash kerak?



Rasm ushbu masalani yechishda qanday yordam berishi mumkin?



Har bir xonaning o'nta birligi keyingi katta xonaning bitta birligini hosil qiladi.

3	1	7				4	7	3				1	7	8
2	5	4				3	5	6				2	6	9
5	7	1				8	2	9				4	4	7



3. Shakar yoki makkajo'xori siropidan tayyorlangan yumshoq va yengil shirinlikning nomini aniqlang. Sonlarni o'sish tartibida qo'yib chiqing.

RSH	OU	MA	ME	LL
358 + 173	343 + 587	180 + 194	227 + 386	359 + 278

51. Uch xonali sonlarni qo'shish



4. Taqqoslang.

$$179 + 119 \square 280$$

$$350 + 480 \square 800$$

$$650 \square 320 + 390$$

$$760 \square 165 + 545$$



5. Zavodda quruq kakao ichimligi tayyorlash uchun 180 kg shakarga undan 30 kg ko'p kakao kukuni aralashtirildi. Necha kilogramm aralashma chiqdi?




6. Oshxonada menyu osilib turibdi.

Kartoshkali sho'rva	3		Olmali bulka	2	
Lag'mon	4		Xamir ichida sosiska	3	
Go'sht bilan qovurilgan sabzavotlar	3		Quyultirilgan sut bilan bulka	2	
Garnir bilan kotlet	4		Shirin choy	1	
Garnir bilan teftel	4		Sharbat	1	

Agar o'quvchida 6  bo'lsa, u tushlikka qanday taomlarni tanlashi mumkin?



7. Bir kunda qandolat do'konida 135 ta "Beze" pirojni, 282 ta "Medovik" pirojni va 137 ta "Chumoli uyasi" pirojni pishirildi. Do'konda jami qancha pirojni tayyorlandi?



8. Qo'shish amalini bajaring.

$$279 + 385$$

$$483 + 468$$

$$782 + 119$$

$$543 + 357$$

$$267 + 156$$

$$373 + 449$$